

BOSHLANG'ICH SINIF ONA TILI DARSLARIDA EGALIK VA SHAXS-SON QO'SHIMCHALARIDAN FOYDALANISH

Sharipova Feruza

7-2BT-21M guruh magistranti

Kalit so'zlar: Grammatik tushuncha, egalik qo'shimchalari, kelishik qo'shimchalari

Annotatsiya: boshlang'ich sinf ona tili darslarida egalik va shaxs-son qo'shimchalaridan foydalanish usullari haqida fikr-mulohazalar yuritilgan.

Istiqlol sharofat ibilan til siyosati o'zgardi. Ona tilimizga huquqiy va siyosiy erk berildi. Endigi vazifa ruhni tutqunlik, qullik asorati danqutqarishdir. Tilshunos, til muallim ish uni teran anglab, ona tilimizning xususiyatini o'zi o'rganmog'I hamda yosh avlod ga o'rgatmog'I darkor. Bu murakkab vazifani muvaffaqiyatli hal etish ko'p jihatdan o'zbek tili Grammatik qurulishining bosh (yetakchi) xususiyatini to'g'ri belgilashga bog'liq. Bosh xususiyat aniqlangach, unga asoslanib til sistemasi unsurlarining struktur-semantik-funksional xususiyati, boshqacha aytganda shakli (tuzilishi, shakli), mazmuni va qo'llanishini to'g'ri talqin qilish imkoni tug'iladi.

Ushbu muammofaqat tilshunoslar oldiga qo'yilgan muammo emas, balki yosh avlodni tarbiyalashda, unga ta'lim berishda yetakchi asos vazifasini o'taydigan boshlang'ich sinf o'qituvchilar ioldiga ham qo'yilgan muammo hisoblanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini Grammatik tushunchalar haqida bilimga ega bo'lishi, ularni o'rnida qo'llay olishi, gap tuzatayotganda uslubiy xatoliklarga yo'l qo'ymasliklarini ta'minlash o'qituvchi zimmasidagi asosiy vazifa hisoblanadi. Zero, o'z tilini bilmaslik, uning Grammatik tushunchalaridan bexabar bo'lish o'zbek tiliga nisbatan hurmatsizlik sanaladi.

Bola nutqini shakllantirishda egalik va kelishik kategoriyalarning o'rni muhimdir. Chunki bola nutqida bu qo'shimchalarning o'rini shlatish holatlar ijuda ko'p kuzatiladi.

Egalik kategoriyasi

o'zbek tilshunosligida turlicha talqin qilinadi. 1980-yilda nashr etilgan. "Hozirgi o'zbek adabiy tili" darsligida shunday yoziladi. "Predmetning 3 shaxsdan biriga mansubligini ko'rsatuvchi morfema egalik affiksi deyiladi. Egalik affixlari shaxs ma'nosi bilan birgalikda uning (shaxsning) sonini (birlik, ko'pligini) ko'rsatadi: savolim – savolimizkabi". Ko'rinadiki, egalik qo'shimchalarida 3 xil ma'nolarni namoyand qilgan deb ko'rsatilgan: egalik (xoslik), shaxs va son.

Son ma'nosiga munosabatiga ko'ra egalik qo'shimchalari 3 turga bo'linishi jadvalda ko'rsatilgan: -m, -ngbirlik, -miz, -ngiz ko'plikni ifodalovchi, -i birlik va ko'plikka bafarqo'shimcha sifatida ko'rsatilgan.

Ushbu darslikda egalik qo`shimchalarining ishlatilishida 2 holatbor deb ko`rsatiladi: mening kitobim.

1. Egalik affiksi o`zi qo`shilgan so`zning boshqa so`z bilan bog`lanishida ishlatiladi.

2. Egalik affiksi o`zi qo`shilgan o`zak doirasida ishlatiladi: onam, o`qishing. Biroq darslikda bu ikki holatning farqi, ya`ni qachon kitobim, qachon mening kitobim deb qo`llanishi izohlanmagan.

G`.Zikrillayev egalik qo`shimchalarining son ma`nosiga munosabatiga 3 ga bo`linishini ko`rsatadi: -(i)m, -(i)ng birlikni, -(i)miz ko`plikni ifodalaydi -(i) ngiz, -(i) si qo`shimchalari ikkala songa ham betaraf. Shunga ko`ra kitobingiz, kitob-laringiz deganda tinglovchining, kitoblari deganda o`zga shaxsning bitta yoki ko`pligi anglashilmaydi.

G`.Zikrillayev rgalik ma`nosining qo`shimcha va so`z bilan ifodalanishi aniq belgilab beradi: Egalik qo`shimchasi bilan kishilik olmoshining qo`llanishida farq bor. Egalik qo`shimchasi nohissiy bayongaxos bo`lib, ko`p uchraydi. Kishilik olmoshi hissiy bayonga xos bo`lganidan kamishlatiladi. Aniqroq qilib aytganda, kishilik olmoshi qaratqichni ta`kidlash, ajratibko`rsatish taqozo qilganda qo`llanadi. Aks holda qaratqichni ifodalash uchun egalik qo`shimchasining o`zi yetarli bo`ladi.

Egalik qo`shimchalari 4-sinf ona tili darsligida “Otlarning egalik qo`shimchalari bilan qo`llanishi” nomi bilan alohida mavzu qilib kiritilgan.Darslikdagi egalik qo`shimchalari talqinida bir nechta e`tirozli nuqta mavjud:

1. Egalik qo`shimchalari son ma`nosiga ko`ra 2 ga ajratiladi: -m, -im, -ng,

-ing, -i, -si egalik qo`shimchalari birlik ma`nosin ibildiradi. -imiz, -miz,

-ingiz, -ngiz, -(lar)i egalik qo`shimchalari ko`plik ma`nosini bildiradi. Vaholanki, egalik qo`shimchalari G`.Zikrillayev to`g`ri ko`rsatganidek, 3 ga bo`linadi: -(i) m, -(i)ng birlikni, -(i) miz ko`plikni bildirib, - (i)ngiz, - (s)I qo`shimchalari ikkala songa ham betaraf. Masalan. Bobomni katta mirob deyishadi. Ukaning tebratib turgaplarida -m, -ng, qo`shimchalari bobo, ukaning bir kishiga tegishli ekanligini bildiriyapti. Maktabimizga ota- onalarni, yozuvchi hakim Nazirni taklif qildik gapida -imiz qo`shimchasi maktabning ko`p kishiga tegishli ekanligin ibildirgan. Endi -(i)ngiz, -(s)i qo`shimchalarining son ma`nosiga munosabatini qaraylik:

1. Aka, aka maktabingizdan menga ham ikkita “besh” olib keeling Alisher Navoiy Husayn Boyqaroning do`sti ekan. 2. Fan cho`qqilarini zabt etishingizda mazkur darslik ko`makchingiz bo`lsin. Bolalarning qo`lida qalam, daftar. Birinchi banddagi misollarda -ingiz, -I qo`shimchalari birlikni (bir kishini), ikkinchi bandda ko`plikni bildiriyapti. Bu esa ularning birlik va ko`plikka betaraf ekanligini isbotlaydi.

2. III shaxs ko`plikdagi egalik qo`shimchasi sifatida -qo`shimchasi kiritiladi: kitoblari, -larni egalik qo`shimchasi tarkibiga kiritib bo`lmaydi. Chunki egalik qo`shimchasi o`zi qo`shilganotning emas, o`sha ot tegishli bo`lgan kishi yoki narsaning

shaxsi va sonini ko'rsatadi. Masalan: kitobim-kitobko'p, egasi bitta. Kitoblari shaklidagi –lar esa kitob egasining emas, kitobning ko'pligini bildiradi. Masalan: Siz, albatta, Quddus Muhammadiyning asarlarini topib o'qing gapida-arasarning ko'pligini bildiriyapti.

3. Darslikda egalik qo'shimchasi va qaratqichli kishilik olmoshining ma'nodoshligi va qo'llab-qo'llanmasligi bayon qilinmaydi. Holbuki, egalik ma'nosining faqat qo'shimcha va qo'shimcha hamda so'z (lug'aviy vosita) bilan ifodalanishi orasidagi farqni bilish juda zarur. Aks holda birinchisi o'rnida ham ikkinchis iqo'llanadi. 4-sinf darsligida shunday holatlar uchraydi: Men o'zimning fikrimni aytmoqchiman. Kishining go'zalligi uning tilidan bilinur. Bizning nutqimiz gaplardan, gaplar so'zlardan tuziladi. Bu gaplarda qaratqichli o'zlik va kishilik olmoshi ortiqcha qo'llangan. Bu esa o'zbek tilining bosh xususiyati-tejamkorlikka ziddir. Quyidagi gaplarda ham olmosh tejalishi kerak, negaki qaratqichni ta'kidlash, ajratib ko'rsatish nazarda tutilmagan. Mening otam – Xursand Yo'lchiyev kolxozda ishlaydi. Bizning Vatanimizda sportga katta e'tabor beriladi. Bizning shahrimizda maktab yoshidagi bolalar uchun ajoyib saroylar qurilgan.

Ta'kid nazarda tutilganidan quyidagi baytda kishilik olmoshining o'rin qo'llangan deb bo'lmaydi:

Keng paxta maydon.

Mening Vatanim (Q. Hikmat).

Kishilik olmoshining bosh kelishikda qo'llanishi eganing ta'kidlab-ta'kidlanmasligi bilan bog'liq. Ega ta'kidlansa, ajratib ko'rsatilsa, olmosh qo'llanadi: Men shashkachilar to'garagiga a'zoman. Karima, sen ham shuto'garakka a'zo bo'lasanmi?

Ta'kid nazarda tutilmasa olmosh tejalivegani ifodalash uchun fe'ning shaxs va son hurmat qo'shimchasi yetarli bo'ladi. Ana shunga yetarli e'tibor berilmaganidan yuqori sinf darsliklaridek yuzlab o'rinda kishilik olmoshi ortiqcha qo'llangan: Biz gulxan atrofida o'tirib ertangi kun rejalarini tuzdik (A. Aminov) Bolalarim, sizlar qo'rqmanglar, tashqariga chiqinglar! Yo'lingdan sen qayt! Xalq g'azabi yomon bo'ladi, sen tavba qil! Bobomdan eshitgan voqealarni men sizga hikoya qilmoqchiman. Tuzgan gaplaringizni yozing. Siz qanday gaplarni yozdingiz! Biz ularning oldiga bordik. Sen bilasanmi, bir yilda nechta oy bor? Biz bir bosh husayni uzdik.

4-sinf o'quvchilarini egalik va kelishik qo'shimchalarini qo'llashda tejamkorlikka o'rgatish uchun quyidagi mashqlardan foydalanish mumkin.

1. O'quvchilarga bosh va qaratqich kelishigidagi kishilik olmoshi to'g'ri va noto'g'ri qo'llanganini aniqlashni topshirish.

2. O'quvchilarga qarashlilik va egalik ma'nosi faqat qo'shimcha va ham qo'shimcha, ham olmosh bilan ifodalangan gaplar tuzishni topshirish.

3. Gazeta, jurnallardan bosh va qaratqich kelishigidagi olmosh ortiqcha, /noo‘rin qo‘llangan gaplarni topib, yozib olishni topshirish.

Oxirgi ikki turdagimashqlar mustaqilish xususiyatiga ega.

Bunday mashqlar orqali 4-sinf o‘quvchilari nutqda qaratqich va bosh kelishidagi kishilik olmoshini to‘g‘ri ishlatishga o‘rganadi. Natijada o‘quvchilar ona tilini his qilish tuyg‘usi shakllanadi va nutqning tozaligiga erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Азизова А.Г., Икрамова Р. Тўртинчисинфда она тили дарслари. – Тошкент.: «Ўқитувчи», 1984. Абдулла Қаҳҳор. Сароб. Роман // Асарлар. Олти томлик. Учинчи том. Тошкент: “Ғафур Ғулом”, 1967.
2. Сайфуллаев Р., Менглиев Б. ва бошқалар. Ҳозирги ўзбек тили. Ўқувқўлланма. – Тошкент.: «Университет», 2007. – 405 б.
3. 3-4 sinf она тили дарсликлари.
4. “Turkiy xalqlar filologiyasida fundamental tadqiqotlar va innovatsion ta’lim texnologiyalar” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya